

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 3 (15)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc), доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduvoidova Ruxshonaxon Akramjon qizi SHAYBONIY HUKUMDORLARINING BIRINCHI VA OXIRGI BIRLASHTIRGAN JANG – JOM JANGI	5
2	Abdullayev Akmaljon Hasanboy o‘g‘li MANG‘ITLAR SULOLASI HUKMDORLARINING TASHQI QIYOFASINI TIKLASHDA SUN‘IY IDROKNING IMKONIYATLARI	10
3	Адилов Абдор Анварович ЯНГИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТ (НЭП) ВА СОВЕТ ДАВЛАТИНИНГ ДИНИЙ СИЁСАТИ ТАРИХИДАН	16
4	Бабаджанов Хасан Бахтиёрлович ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОН ЁҒ-МОЙ САНОАТИ	27
5	Бахранов Шерзад Таштурсунович ЎЗБЕКИСТОН ССРДА БУҒДОЙ НАВЛАРИНИ ЎРГАНИШ ВА ИЗЛАНИШ ИШЛАРИ ТУҒРИСИДА	36
6	Габриэльян Софья Ивановна ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ИРАНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА	43
7	Дорошенко Татьяна Ивановна ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ БЛАГОТВОРИТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ТУРКЕСТАНЕ В ГОДЫ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ	53
8	Ishanxodjayeva Zamira Raimovna IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKSTON XOTIN-QIZLARINING IQTISODIY HAYOTDAGI ISHTIROKI (TOSHKENT SHAHRI VA TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)	62
9	Jabbarova Iqbol Xo‘jamuratovna SUV XO‘JALIGINI BOSHQARISHDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	71
10	Kimsanova Ruxshona Xayrulla qizi SEVINCHIXO‘JAXON VA KELDI MUHAMMADXON DAVRIDA TOSHKENT HUKUMRONLIGI	77
11	Mamataliyeva Arofatxon Yuldashali qizi O‘ZBEK MILLIY OSHXONASI VA PALOV AN‘ANASINING MILLIY BREND SIFATIDA SHAKLLANISHI	85
12	Мусаев Нуриддин Умирзакович РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРИНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ	91
13	Musayev Azizbek Baxridinovich MANBALARDA XVII ASR FARG‘ONA VODIYSINING IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTI AKS ETISHI	103
14	Nazarov Xumoyun Alisherovich MARKAZIY OSIYO QADIMGI JAMIYATLARI TARAQQIYOTIDA IQLIMIY OMILLAR VA LANDSHAFT TRANSFORMATSIYASI	110
15	Нарбеков Абдикамил Вафаевич ВОПРОСЫ АВТОХТОННОСТИ УЗБЕКОВ В ТУРКЕСТАНЕ	120
16	Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI “JIZMONSOY” MFY.DAN TOPGAN TANGALAR XUSUSIDA	126

17	Очилдиев Файзулла Бабакулович XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИДА ШАРҚИЙ БУХОРОДА БОШҚАРУВ ТИЗИМИ ТАРИХИДАН	144
18	Palvanov Hikmatmatjon Axmatjonovich XORAZM VONASI ANTIK DAVRI METALL HUNARMANDCHILIGINING BA'ZI XUSUSIYATLARIGA DOIR MULOHAZALAR	152
19	Солиев Махмуджон Махамаджонович ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАҚСИМОТИНИНГ ЁПИҚ ТИЗИМИ ИШЧИЛАРНИ ИЖТИМОЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА: ИШЧИ ТАЪМИНОТИ БЎЛИМЛАРИ ФАОЛИЯТИ (1941–1945 йй.)	159
20	Tolibjonov Azizjon Tolibjonovich XORAZMSHOH-ANUSHTEGINIYLAR DAVLATI VA ABBOSIYLAR XALIFALIGI O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR (OTSIZ MAKTUBLARI MISOLIDA)	167
21	Usarov Umid Abdimavlyanovich ROSSIYA IMPERIYA SENATINING A'ZOSI, GRAF K.K. PALEN BOSHCHILIGIDA TAFTISH KOMISSIYASI HISOBOTLARIDA TURKISTON O'LKADAGI YER-SUV MUNOSABATLARINING AKS ETTIRILISHI	174
22	Xakimov Adhambek Ahmadjon o'g'li XIV ASRNING 50-70 YILLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI SIYOSIY VAZIYATNI O'RGANISHDA TEMURIYLAR DAVRI MANBALARINING O'RNI	184
23	Xolikulov Axmadjon Boymaxammadovich AMIR HAYDAR HUKMRONLIGI YILLARIDA BUXORO – XIVA MUNOSABATLARI	191
24	Холикулова Шахноза Боймухамматовна ЧИРЧИҚ КИМЁГАРЛАР ШАҲАРЧАСИНИНГ ҚУРИЛИШИ ТАРИХИ	200
25	Юлдашева Шохсанам Юнусали кизи ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МЕЖПАРЛАМЕНТСКИХ СВЯЗЕЙ УЗБЕКИСТАНА И ТУРЦИИ В 2017-2026 ГОДАХ	207
26	Yunusova Xurshida Erkinovna MAMLAKAT QISHLOQ XO'JALIGIDA ISLOHOTLARNING BOSHLANISHI VA UNING MUAMMOLARI	214

Abdullayev A.H.

«O‘zbekiston tarixi» kafedrası o‘qituvchisi

O‘zbekiston Milliy universiteti

abdullayevakmal511@gmail.com

MANG‘ITLAR SULOLASI HUKMDORLARINING TASHQI QIYOFASINI TIKLASHDA SUN‘IY IDROKNING IMKONIYATLARI

ANNOTATSIYA

Maqolada mang‘itlar sulolasi hukmdorlarining tashqi qiyofasini tiklashda sun‘iy idrok texnologiyalarining ilmiy imkoniyatlari tahlil qilingan. Tarixiy fotosuratlar, portretlar, tasviriy manbalar va yozma tavsiflar asosida hukmdorlarning virtual qiyofasini qayta tiklashda qo‘llanilgan sun‘iy idrok algoritmlarining vazifalari batafsil bayon etilgan. Shuningdek, Amir Haydar, Amir Nasrullo, Amir Muzaffar, Amir Abdulahad va Amir Olimxon qiyofalarini gavdalantirishda sun‘iy idrokning o‘ziga xos jihatlari hamda samaradorligi qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari tarixiy shaxslar qiyofasini tiklashda SI muhim ilmiy vosita bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: sun‘iy idrok, tarixiy rekonstruksiya, kompleks, Buxoro amirligi, virtual rekonstruksiya, 3D modellashirish, Blender, Face Restoration AI, Super Resolution AI, Face Detection AI, vizuallizatsiya.

KIRISH

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi tarixiy meros obyektlarini o‘rganish va qayta tiklash jarayonlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, sun‘iy idrok texnologiyalarining takomillashuvi natijasida tibbiyot, moliya, sanoat ishlab chiqarish va ta’lim sohalarida o‘z o‘rnini topib bormoqda. Shuningdek, tarix sohasida tarixiy shaxslarning tashqi qiyofasini ilmiy asosda qayta tiklash imkoniyatlari paydo bo‘ldi. Tarixiy manbalarda saqlanib qolgan tasvirlar, fotosuratlar, miniatyuralar va yozma tavsiflarni algoritmlar yordamida tahlil qilish orqali o‘tmishda yashagan shaxslarning ehtimoliy qiyofasini yaratish mumkin bo‘lmoqda.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Mang‘it hukmdorlari qiyofasini qayta tiklashda bir nechta sun‘iy idrok texnologiyalaridan kompleks foydalanish orqali imkoniyatlari o‘rganildi. Chunki mavjud tarixiy manbalarning har bir hukmdor bo‘yicha tavsiflari turlicha hisoblanadi. Shu bois rekonstruksiya jarayonida qo‘llaniladigan algoritmlar ham vazifalariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi.

Dastlabki sun‘iy idrok Face Restoration AI (yuz tasvirlarini qayta tiklashga mo‘ljallangan sun‘iy intellekt) texnologiyasi orqali tarixiy fotosuratlarda vaqt o‘tishi natijasida yuzaga kelgan xiralik, shikastlanish va deformatsiyalarni bartaraf etishga xizmat qiladi[2]. Xususan, Amir Abdulahad va Amir Olimxonning arxiv fotosuratlarini qayta ishlashda ushbu texnologiya ahamiyati yuqori

hisoblanadi. Chunki mazkur hukmdorlar davriga oid fotosuratlar mavjud bo'lib, ularni rekonstruksiya qilishda avvalo tasvir sifatini tiklash talab etiladi.

Shuningdek, Super Resolution AI (tasvir aniqligini oshiruvchi sun'iy intellekt) tarixiy suratlarning sifatini yaxshilash imkonini beradi. Ushbu algoritm past aniqlikdagi fotosuratlarini yuqori aniqlikdagi tasvirlarga aylantirib, yuzning mayda anatomik elementlarini aniqlashga yordam beradi[10]. Jumladan, ko'z shakli, burun tuzilishi, yonoq suyaklari va iyakning joylashuvini aniqlashda Super Resolution AIning ahamiyati yuqori. Ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asr boshlariga oid fotografik materiallar bilan ishlashda ushbu texnologiya eng ko'p qo'llaniladigan vositalardan biridir.

Face Detection AI (yuzning biometrik nuqtalarini aniqlovchi sun'iy intellekt) algoritmi inson yuzidagi asosiy antropometrik nuqtalarni aniqlaydi va ular orasidagi masofalarni o'lchab chiqadi[10]. Natijada yuz proporsiyalari, simmetriya darajasi va individual morfologik belgilar aniqlanadi. Bu ma'lumotlar keyinchalik uch o'lchamli model yaratish uchun asos bo'ladi.

3D Face Reconstruction AI (ikki o'lchamli tasvir asosida uch o'lchamli yuz modelini yaratishga mo'ljallangan sun'iy intellekt) texnologiyasi yordamida fotografik yoki tasviriy manbalardan yuzning hajmiy modeli hosil qilinadi[4]. Natijada ikki o'lchamli tasvir virtual uch o'lchamli obyektga aylantiriladi. Keyinchalik ushbu model Blender dasturida qayta ishlanib, tarixiy manbalarda uchraydigan tavsiflar asosida takomillashtiriladi.

Ayrim hollarda hukmdorlar qiyofasini tiklash uchun mavjud manbalar yetarli bo'lmaydi. Bunday vaziyatda Generative AI (mavjud ma'lumotlar asosida yangi tasvirlarni yaratishga mo'ljallangan generativ sun'iy intellekt) qo'llaniladi. Mazkur texnologiya tarixiy portretlar, yozma tavsiflar va sulolaviy antropologik belgilar asosida yetishmayotgan elementlarni ehtimollik modeli orqali yaratadi. Xususan, Amir Haydar va Amir Nasrullo qiyofalarini rekonstruksiya qilishda ushbu texnologiyaning ahamiyati ortadi. Sababi ushbu hukmdorlar davrida fotografiya hali keng tarqalmagan bo'lib, ularning qiyofasi haqida to'liq fotografik ma'lumotlar mavjud emas[8].

Shuningdek, Deep Learning AI (ko'p qatlamli neyron tarmoqlar asosida ma'lumotlarni chuqur tahlil qiluvchi sun'iy intellekt) sulola vakillari orasidagi irsiy belgilar, antropologik o'xshashliklar va individual xususiyatlar qiyosiy tahlil qilinadi[10]. Natijada rekonstruksiya qilingan qiyofalarning ilmiy asoslanganlik darajasi oshdi.

Qolaversa, Image Colorization AI (oq-qora tasvirlarni ranglashtirishga mo'ljallangan sun'iy intellekt) tarixiy fotosuratlarini rangli formatga o'tkazib, hukmdorlarning kiyim-kechagi, bosh kiyimlari va tashqi ko'rinishining vizual tasviri yanada jonli shaklga keltiriladi. Biroq mazkur algoritm yordamchi vosita hisoblanadi, chunki ranglar tarixiy hujjatlar bilan to'liq tasdiqlanmagan ehtimoliy natijalarni ifodalaydi.

Mang'it hukmdorlari orasida Amir Olimxon qiyofasini rekonstruksiya qilish nisbatan oson hisoblanadi. Chunki uning turli davrlarga oid ko'plab fotosuratlari saqlanib qolgan. Shu sababli Face Restoration AI va Super Resolution AI texnologiyalari asosiy rolni bajaradi[2]. Amir Abdulahad qiyofasini tiklashda ham

fotografik materiallar mavjudligi sababli tasvirlarni tiklash va aniqlashtirish texnologiyalari ustunlik qiladi. Biroq ayrim suratlarning sifati past bo'lganligi sababli Face Restoration AI texnologiyasi ko'proq qo'llaniladi. Amir Muzaffar qiyofasini rekonstruksiya qilishda esa vaziyat nisbatan murakkablashadi. Chunki uning fotosuratlarini son jihatidan kamroq hisoblanadi. Xususan, 1910-yilda nashr etilgan Kaufman to'plamida amir Muzaffarning tasviri keltirilgan. Tasvir A.A. Semenov tomonidan general N.I. Grodekov kolleksiyasida saqlangan noyob ranglangan fotografiya asosida tayyorlangan. Manba hukmdorning yuz tuzilishi, soqol shakli, bosh kiyimi va saroy liboslari haqida vizual ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi[1]. Tasvirdan ko'rinishicha, Amir Muzaffar o'rta uzunlikdagi qora soqol, keng peshona, to'g'ri burun va bodomsimon ko'zlarga ega bo'lgan. Shuningdek, uning boshida an'anaviy amirlik sallasining tasvirlanishi hamda zarbof naqshlar bilan bezatilgan tantanavor ustki kiyim kiyganligi hukmdorning siyosiy mavqei va saroy protokolidagi o'rnini ifodalaydi. Shu sababli Face Restoration AI bilan bir qatorda Generative AI texnologiyasidan ham foydalanishga ehtiyoj paydo bo'ldi[2].

Amir Nasrullo qiyofasini tiklash esa yanada murakkab jarayon hisoblanadi. Xususan, Amir Nasrulloning musavvir Belousov tomonidan chizilgan portreti hukmdor qiyofasini tiklashda asosiy tasviriy manbalardan biri hisoblanadi. Tasvir Buxoroda 1841–1842 yillarda Butenev boshchiligidagi Rossiya missiyasi tarkibida bo'lgan sharqshunos N.Xanikovning “Описание Бухарского ханства” asarida e'lon qilingan bo'lib, Buxoro amirlarining musavvir tomonidan ishlangan eng dastlabki tasvirlaridan biri sifatida o'rganish mumkin[8]. Tasvirda amirning yuz tuzilishi, soqol shakli, bosh kiyimi va kiyinish uslubi aks etgan bo'lib, bu orqali hukmdor qiyofasining vizual xususiyatlarini aniqlash mumkin. Tasviriy manba bilan bir qatorda zamondoshlarning tavsiflari ham qayta tiklashda muhim ahamiyatga ega. Xususan, N.Ignatev Amir Nasrulloni quyidagicha tavsiflaydi: “U kekka bo'lishiga qaramasdan, hali juda baquvvat, g'ayratli, shijoatli, jo'shqin, mard, salobatli, aqlli, ziyrak ko'zlari bilan o'zini juda qadrlit tutadi. Ammo uning shafqatsizligi va zo'ravonligi namoyon bo'lishi bilan uning oldida hamma zir titraydi”[7]. Tavsif hukmdorning xarakteri, ruhiy holati va hukmdorlik salobatini ham yoritib beradi. Natijada Generative AI texnologiyasining imkoniyatlarini ushbu hukmdorda bilish mumkin[9].

Demak, sun'iy idrok texnologiyalarining qo'llanilish darajasi hukmdor haqida saqlanib qolgan manbalar bazasiga bevosita bog'liqdir. Fotografik manbalari yaxshi saqlangan hukmdorlarni rekonstruksiya qilishda Face Restoration AI va Super Resolution AI yetakchi rol o'ynasa, tasviriy manbalari cheklangan hukmdorlarda Generative AI texnologiyasi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda tarixiy shaxslar qiyofasini qayta tiklashda sun'iy idrok va 3D modellash dasturlari o'z imkoniyatlari bilan ta'lim sohasida o'rin egallamoqda. Sun'iy idrok katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilishi, tasvirlarning sifatini yaxshilashi, yuz tuzilishidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlashi hamda mavjud bo'lmagan elementlarni ilmiy ehtimollik asosida qayta tiklashi mumkin. Blender esa, aksincha, vizual modellash vositasi hisoblanadi[3]. U sun'iy idrok yordamida aniqlangan ma'lumotlarni uch o'lchamli

virtual modelga aylantirish imkonini beradi. Blender muhitida hukmdorning yuz tuzilishi, bosh kiyimi, kiyim-kechagi, qurol-aslahalari va boshqa atributlari modellashtiriladi. Shuningdek, tarixiy binolar, saroy interyerlari va elchilik qabul marosimlari kabi murakkab sahnalarni yaratish imkonini beradi. Natijada tarixiy shaxsning qiyofasidan tashqari, uning yashagan muhiti ham virtual shaklda tiklanadi.

Sun'iy idrok hamda Blender dasturi bilan farq shundaki, sun'iy idrok ma'lumotlarni tahlil qilib, qayta tiklash uchun ilmiy asos shakllantiradi. Blender orqali bu asosni vizual ko'rinishga keltiradi[4]. Boshqacha aytganda, sun'iy idrok "hukmdor qanday ko'rinishda bo'lgan?" degan savolga javob izlaydi, ya'ni 2D ko'rinishdagi tasvirni bersa, Blender esa "hukmdorni qanday tasvirlash mumkin?" degan vazifani bajarib, 3D modelni ishlab chiqadi. Shu sababli ushbu ikki texnologiya bir-birining o'zaro integratsiyalashgan holda qo'llanilganda samarali natija beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Mang'itlar sulolasi hukmdorlarining tashqi qiyofasini tiklashda sun'iy idrok texnologiyalari tarixiy rekonstruksiyaning muhim ilmiy vositasiga aylanmoqda. Texnologiyalar tarixiy fotosuratlarini tiklash, tasvir sifatini yaxshilash, yuzning antropometrik parametrlarini aniqlash va 3D modellar yaratish imkonini beradi. Xususan, Face Restoration AI va Super Resolution AI mavjud fotografik manbalarni qayta ishlashda eng samarali vositalar hisoblansa, Generative AI tarixiy ma'lumotlar yetishmagan hollarda qo'shimcha rekonstruktiv imkoniyatlarni paydo qiladi. Natijada sun'iy idrok texnologiyalarining kompleks qo'llanilishi Mang'it hukmdorlarining tashqi qiyofasini ilmiy asosda qayta tiklash hamda Buxoro amirligi tarixini virtual muhitda vizuallashtirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Shuningdek, maqolada Blender dasturining qiyofani qayta tiklashdagi o'rni sun'iy idrokdan farq qilishini ko'rsatdi. Sun'iy idrok tarixiy ma'lumotlarni tahlil qilib, ilmiy asos bersa, Blender ushbu ma'lumotlarni 3D vizual modelga aylantirish vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кауфманский сборник, изданный в память 25-летия со дня смерти покорителя и устроителя Туркестанского края генерал-адъютанта К.П. фон-Кауфмана I-го. – Москва: Типо-литография Т-ва И.Н. Кушнерев и Ко, 1910. – 408 с.

3. Бороодкин Л.И. Жеребятъев Д.И. Технологии 3Дмоделирования в исторических исследованиях от визуализация к аналитике //Историческая информатика. №2, 2012.-С.40-58.

2. Yang M., Li S., Zeng J. The Effects of AI-Driven Face Restoration on Forensic Face Recognition // Applied Sciences. – 2024. – Vol. 14. – No. 9. – Article 3783.

3. Wilkinson C. Facial Reconstruction: Anatomical Art and Reconstruction. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – 288 p.

4. Hess R. Blender Foundations: The Essential Guide to Learning Blender 4.0. – New York: Routledge, 2024. – 550 p.
5. Blender Foundation. Blender Manual. – Amsterdam: Blender Foundation, 2025.
6. Ochildiyev F.B. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Monografiya / Mas’ul muharrir A.S.Sagdullayev. – Toshkent: Firdavs-Shoh, 2022. – 296 b.
7. Xolikulov A.B. Buxoro amirligining tashqi siyosiy aloqalari (XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr o’rtalari) Monografiya / Mas’ul muharrir A.S.Sagdullayev. – Toshkent: Firdavs-Shoh, 2023. – 44 b.
8. Zamonov A., Egamberdiyev A. Buxoro amirligi tarixi (XVIII asr o’rtalari – XIX asr o’rtalari) [Matn]: uslubiy qo’llanma. – Toshkent: Tamaddun, 2022. – B. 69.
9. Tog’ayev Jasur Erkinovich. Bronza va ilk temir davri tarixiy rekonstruksiya masalalari (Janubiy O‘zbekiston misolida) [Matn]: monografiya / Jasur Erkinovich Tog’ayev. – Toshkent: Shafolat Nur Fayz, 2020. – 29 b.
10. Abdullayev A. Buxoroda Mang’itlar sulolasi vakili Amir Haydarning portretini qayta tiklashda sun’iy intellekt // International Scientific and Practical Conference “Tech Horizon 2025: IT and Innovation Summit”. – 2025.
11. Abdullayev A. O‘zbekiston tarixini o‘rganishda data sciencening ahamiyati // Oriental Journal of Social Sciences. – 2023. – Vol. 3, Issue 6. – P. 69–72.
12. <https://huggingface.co/>

Абдуллаев А.Х.

Преподаватель кафедры «Истории Узбекистана»

Национальный университет Узбекистана

abdullayevakmal511@gmail.com

ВОЗМОЖНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ВОССТАНОВЛЕНИИ ВНЕШНЕГО ОБЛИКА ПРАВИТЕЛЕЙ ДИНАСТИИ МАНГЫТОВ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются научные возможности технологий искусственного интеллекта в восстановлении внешнего облика правителей династии Мангытов. Подробно описаны функции алгоритмов искусственного интеллекта, используемых для виртуальной реконструкции облика правителей на основе исторических фотографий, портретов, изобразительных источников и письменных описаний. Также проведен сравнительный анализ особенностей и эффективности искусственного интеллекта в воплощении обликов эмира Хайдара, эмира Насруллы, эмира Музафара, эмира Абдулахада и эмира Алимхана. Результаты исследования показывают, что ИИ служит важным научным инструментом в восстановлении облика исторических личностей.

Ключевые слова: искусственный интеллект, историческая реконструкция, комплекс, Бухарский эмират, виртуальная реконструкция, 3D-моделирование, Blender, Face Restoration AI, Super Resolution AI, Face Detection AI, визуализация.

Abdullayev A.H

Teacher at the department of «History of Uzbekistan»

National University of Uzbekistan

abdullayevakmal511@gmail.com

POSSIBILITIES OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN RECONSTRUCTING THE EXTERNAL APPEARANCE OF THE MANGHIT DYNASTY RULERS

ABSTRACT

The article analyzes the scientific potential of artificial intelligence technologies in reconstructing the external appearance of the Manghit dynasty rulers. It details the functions of artificial intelligence algorithms used in virtually restoring the rulers' appearances based on historical photographs, portraits, pictorial sources, and written descriptions. Additionally, a comparative analysis is made of the specific aspects and effectiveness of artificial intelligence in embodying the appearances of Amir Haydar, Amir Nasrullo, Amir Muzaffar, Amir Abdulahad, and Amir Olimkhon. The research results demonstrate that AI serves as an important scientific tool in reconstructing the appearance of historical figures.

Key words: artificial intelligence, historical reconstruction, complex, Bukhara Emirate, virtual reconstruction, 3D modeling, Blender, Face Restoration AI, Super Resolution AI, Face Detection AI, visualization.